

**ROSSIYA IMPERYASI, SOVET DAVRIDA BUXORO AHOLISI ETNIK TARKIBI VA ETNOGRAFIYASI O'RGANILISHI.****Maxammadiyeva Barno Maxammadi qizi**

Osiyo xalqaro unvirsetiti magistranti.

**Email:** [maxammadiyevabarno0@gmail.com](mailto:maxammadiyevabarno0@gmail.com) **Tel:** 94-364-34-24**<https://doi.org/10.5281/zenodo.20383073>**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Rossiya imperiyasi va sovet davrida Buxoro hududining etnik tarkibi hamda etnografik xususiyatlarini o'rganish jarayonlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda XIX asr oxiri va XX asr davomida rus sharqshunoslari, etnograflari hamda sovet olimlari tomonidan amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar, statistik ma'lumotlar va ekspeditsiyalar natijalari ko'rib chiqilgan. Maqolada sovet davridagi etnografik tadqiqotlarning mafkuraviy jihatlari hamda ularning tarixiy manba sifatidagi ahamiyati ochib beriladi. Tadqiqot natijalari Buxoro vohasining etnik tarixi va madaniy merosini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** Rossiya imperiyasi, sovet davri, Buxoro vohasi etnik tarkib, etnografiya, etnik jarayonlar, aholi ro'yxati, tarixiy manbalar, etnografik tadqiqotlar.

**Kirish.** XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr davomida Buxoro vohasi Markaziy Osiyoning siyosiy, iqtisodiy hamda madaniy markazlaridan biri sifatida tadqiqotchilar e'tiborini tortib kelgan. Ayniqsa, Rossiya imperiyasi tomonidan Turkiston hududining bosib olinishi va keyinchalik sovet hokimiyatining o'rnatilishi natijasida Buxoro hududining etnik tarkibi, aholi joylashuvi, turmush tarzi hamda etnografik xususiyatlarini o'rganishga bo'lgan ilmiy qiziqish yanada kuchaydi. Mazkur davrda olib borilgan tadqiqotlar nafaqat ilmiy maqsadlarga, balki imperiyaviy boshqaruv siyosati, ma'muriy nazorat va hududiy boshqaruv ehtiyojlariga ham xizmat qilganligi bilan ahamiyatlidir.

Rossiya imperiyasi davrida Buxoro amirligi aholisi tarkibini o'rganish asosan harbiy topografik ekspeditsiyalar, statistik kuzatuvlar va sharqshunos olimlarning izlanishlari orqali amalga oshirildi. Bu jarayonda mahalliy aholining etnik mansubligi, urug'-qabila tizimi, xo'jalik yuritish shakllari, urf-odatlar va diniy qarashlari haqida muhim ma'lumotlar to'plandi. Sovet davriga kelib esa etnografik tadqiqotlar marksistik metodologiya asosida olib borilib, millatlar masalasi, aholini hududiy jihatdan qayta tasniflash hamda milliy respublikalarni shakllantirish siyosati bilan chambarchas bog'liq holda rivojlandi.

Shu bilan birga, mazkur davr tadqiqotlarida siyosiy mafkura ta'siri kuchli bo'lib, ayrim hollarda Buxoro vohasining etnik tarixiga biryozlama yondashuvlar ham kuzatiladi. Ayniqsa, mahalliy xalqlarning etnogenezi, etnik chegaralari va madaniy merosini talqin qilishda imperiyaviy hamda sovet mafkurasi ta'siri sezilarli bo'lgan. Biroq ushbu manbalar bugungi kunda ham Buxoro aholisi etnik tarkibi va etnografiyasini o'rganishda muhim tarixiy manba sifatida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida etnografik tadqiqotlarning amaliy ahamiyati nihoyatda katta bo'ldi. Chunki kapitalizimni chetlab o'tib feodal tuzumdan bevosita sotsializmga o'tgan xalqlarning xo'jalik, madaniy turmush tarzini o'zgartirish bilan bog'liq masallarni xalq etishda etnografiyaning tavsiyalari qo'l keldi. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyodagi siyosiy va harbiy ekspansiyasi natijasida Buxoro amirligi rus imperiyasi ta'sir doirasiga tortildi. Ushbu jarayon Buxoro haqida rus tilida ko'plab rasmiy hujjatlar, statistik hisobotlar, harbiy-ma'muriy materiallar hamda ilmiy-etnografik tadqiqotlarning yaratilishiga sabab bo'ldi.

Mazkur manbalar Buxoro etnik tarkibi va etnografiyasini o'rganishda muhim ahamiyatga ega bo'lsa-da, ularni mustamlakachilik siyosati va mafkurasi kontekstida tanqidiy tahlil qilish zarur.

Rus mustamlakachilik manbalarida Buxoro etnik tarkibiga oid ma'lumotlar, ayniqsa, statistik materiallarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu statistik ma'lumotlar aholining aniq sonini berishdan ko'ra, taxminiy ko'rsatkichlarga asoslangan bo'lib, ularning aniqligi nisbiy hisoblanadi. Shunga qaramay, ushbu ma'lumotlar Buxoro etnik tarkibining umumiy manzarasini tiklashda muhim yordamchi manba vazifasini bajaradi. Rus sharqshunoslik va ilmiy-etnografik manbalari esa Buxoro etnik tarkibini yanada kengroq va chuqurroq yoritishga intilgan

O'tmishdagi va hozirgi etnik jarayonlarni o'rganish uzoq vaqtdan beri Sovet etnografiyasining asosiy yo'nalishi bo'lib kelgan. Sovet olimlari allaqachon ushbu mavzuning turli jihatlarini yorituvchi bir qator asarlar yaratganlar. B. X. Karmishevaning nashr etilgan asarlar turkumiga organik ravishda qo'shilgan yangi kitobi boshqa kitoblar orasida etnik jarayonlarni o'rganishda juda muhim bo'lgan integratsiyalashgan yondashuvni alohida to'liqlik va izchillik bilan qo'llaganligi bilan ajralib turadi. B.X. Karmisheva o'z kitobini etnografik ma'lumotlar yordamida eng to'liq tavsiflanishi mumkin bo'lgan davr bilan boshlaydi. Birinchi bob "XIX asr oxiri - XX asr boshlarida aholining etnik tarkibi va uning alohida guruhlarining joylashishi" deb nomlangan. Faqat ikkinchi bobda mintaqa aholisining shakllanish tarixi bayon etilgan. Ushbu kitobning tuzilishi muallifning iloji boricha uzoq o'tmishdagi voqealarni qayta tiklashga bag'ishlangan barcha tarixiy va etnografik asarlarda mavjud bo'lgan ma'lum bir noaniqlikni bartaraf etish istagi bilan izohlanadi. [1,B.35]

Shunday qilib, muallifning kuzatuvlari ikkita yirik etnik muhit - eronzabon va turkiyzabonlar o'rtasidagi munosabatlar tarixiga qaratilgan. Shubhasizki, aynan shu masalalar, turli aholi guruhlarining sonini, iqtisodiy, madaniy va millatlararo aloqalarni, shuningdek, assimilyatsiya jarayonlarini o'rganish bilan bog'liq bo'lib, o'zbeklar va tojiklarning etnik tarixining eng muhim masalalarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Mazkur maqolaning maqsadi Rossiya imperiyasi va sovet davrida Buxoro etnik tarkibi hamda etnografiyasining o'rganilish jarayonini tahlil qilish, bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlari va metodologik xususiyatlarini yoritishdan iborat. Shuningdek, tadqiqot davomida mazkur davr olimlari tomonidan yaratilgan ilmiy merosning tarixshunoslikdagi o'rni va ahamiyati ilmiy jihatdan baholanadi.

**Metodologiya va adabiyotlar tahlili.** Mazkur ilmiy maqolada Rossiya imperiyasi hamda sovet davrida Buxoro aholisi etnik tarkibi va etnografiyasining o'rganilish jarayoni tarixiy-etnografik hamda tarixshunoslik yondashuvlari asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot metodologiyasi kompleks xarakterga ega bo'lib, tarix, etnologiya, demografiya va manbashunoslik fanlari usullarining o'zaro integratsiyasiga tayangan holda ishlab chiqildi.

Tadqiqotning metodologik asosini tarixiylik, xolislik va tizimlilik tamoyillari tashkil etadi.

Tarixiylik tamoyili orqali Buxoro aholisi etnik tarkibining XIX asr oxiri – XX asr davomida bosqichma-bosqich o'zgarishlari hamda ushbu jarayonlarning siyosiy va ijtimoiy omillar bilan bog'liqligi ochib beriladi. Xolislik tamoyili esa Rossiya imperiyasi va sovet davrida olib borilgan etnografik tadqiqotlarni mafkuraviy ta'sirlardan holi tarzda qayta baholash imkonini beradi. Tizimlilik yondashuvi yordamida etnik jarayonlar, aholi migratsiyasi, ijtimoiy qatlamlar va madaniy xususiyatlar yagona tarixiy jarayon sifatida tahlil qilinadi.

Maqolada qiyosiy-tarixiy metod muhim o'rin tutadi. Ushbu metod yordamida Rossiya imperiyasi davridagi statistik ma'lumotlar, harbiy-topografik tavsiflar, sayyohlar va sharqshunos olimlarning kuzatuvlari sovet davrida amalga oshirilgan aholini ro'yxatga olish materiallari hamda etnografik ekspeditsiyalar natijalari bilan solishtiriladi. Bu esa Buxoro aholisi etnik tarkibidagi dinamik o'zgarishlarni aniqlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, tadqiqotda manbashunoslik tahlili usuli qo'llanilib, arxiv hujjatlari, statistik to'plamlar, sovet davri aholi ro'yxati materiallari, ilmiy ekspeditsiya hisobotlari va etnografik tadqiqotlar ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Ayniqsa, Rossiya imperiyasi ma'muriy hisobotlari hamda sovet davridagi etnografik kuzatuvlarning mazmuni, maqsadi va ideologik yo'nalishi o'zaro qiyoslanadi.

Etnografik metod orqali Buxoro hududida yashagan o'zbeklar, tojiklar, turkmanlar, yahudiylar, arablar va boshqa etnik guruhlarining turmush tarzi, urf-odatlar, an'analari, kiyim-kechaklari, mahalla tizimi hamda xo'jalik faoliyati o'rganiladi. Shu bilan birga, antropologik va demografik yondashuvlar asosida aholi soni, joylashuvi va migratsion jarayonlar statistik ma'lumotlar orqali tahlil qilinadi.

Mazkur metodologik yondashuvlar Buxoro aholisi etnik tarkibi va etnografiyasining o'rganilish tarixini kompleks tarzda tahlil qilish, mavjud ilmiy qarashlarni qayta baholash hamda yangi ilmiy xulosalar chiqarishga xizmat qiladi.

Tarixiy-etnografik tadqiqotlar ayrim xalqlar, elatlarning, shu jumladan o'zbek: xalqining. insoniyat tarixida tutgan mavqeyi va o'rnini aniqlashga yordam beradi. Tarixiylik qiyosiy uslub va materialistik dunyoqarashga asoslangan etnik jarayonlarni to'g'ri tushunishning birdan-bir obyektiv omilidir. [2,B.12] XIX asr oxiri, XX asr boshlarida, N.A.Xanikov, Emleyanko, F.D.Lyushkevich, A.Suxareva, E.K.Meyendorff, B.X. Karmisheva, D. N Logofet, M.S.Andreev, T. Poslavskiy Yan Viktorovich Vitkevich kabi olimlar tomonidan yozilgan asarlarda Buxoro aholisi, ularning kelib chiqishi, til xususiyatlari va urf odatlari, an'analari kiyinish madaniyati, taomlari haqida muhim ilmiy mulohazalar bildirilgan.

Buxoro aholisi etnik kelib chiqishini o'rganish murakkab masala hisoblanadi Uning yechimi noma'lumligicha qolmoqda; adabiyotda turli fikrlar bildirilgan. Shaharning etnik tarkibi haqidagi ma'lumotlar yevropaliklarning u bilan bevosita tanishishi, turli sayohatchilarning tashriflari davomida to'plana boshlangan.

Xonlik poytaxtining etnik tarkibi, uning ko'p millatli ekanligi va asosiy aholisini aniqlashi, Buxoro aholisini tavsiflashda ayniqsa batafsil bayon etilgan.

Yan Viktorovich Vitkevich sharqshunos sayyoh asli polshalik 1823-yil maxfiy aksil hukumat tashkilotida qatnashganligi bois oddiy askar sifatida Orenburg jo`natiladi.

1835-yil 9-noyabr Ors qal'asida savdo karvonlarining biri bilan yo'lga chiqdi 1836-yil 2-yanvarda Buxoroga yetib keldi. Yan Viktorovich Vitkevich Buxoroda to'plagan ma'lumotlari "10-sonli Orenburg batalon linya praporshigi Vitkevichning Buxoroga borishi va qaytishiga doir hikoyalar bo'yicha tuzilgan qaydlar" nomi bilan leksikograf Dale yozib olgan. Sababi Vitkevich rus tini juda yaxshi bilmagan. Hozirda qaydlarning asl nusxasi Rossiya davlat harbiy arxivida saqlanadi.

Qaydanomada Buxoro etnografiyasi haqida qimmatli ma'lumot qoldirilgan.

Tatar etnosi O'rta Osiyolik sunniy musulmonlarning turkiyzabon dindoshlari bo'lib, ular avvaldan savdo karvonsaroylari bilan savdogar yoki tarjimon sifati Buxoroga kelishgan.

Ularning bir qismi iqtisodiy, siyosiy va boshqa sabablarga ko'ra Rossiyadan Buxoroga qochib kelishgan va shu yerda Ularning soni manbalarga ko'ra, ikki-uch ming kishiga yetgan.

Ularning 6-8 tasi bitta xonada yashagan va uy yumushlari bilan band bo'lgan. Rossiyadan ish bilan kelgan tatarlar shu karvonsaroyda qolishgan. Vitkevich shahar aholisining to'rtidan uch qismini tojiklar va atigi to'rtidan bir qismini o'zbeklar deb hisoblashgan. Buxoroda 300ta ko'cha tor ko'cha bor, aholining aytishicha 100 mingta emish bo'rtirilgan"qaydlarida yozib qoldirilgan. [3,B.43]

Keyingi mualliflar orasida 1880-yillarda shahar hayotini uzoq vaqt kuzatgan I. T. Poslavskiy ham Buxoroning asosiy aholisini o'zbeklarga bog'laydi. U shunday deb yozadi: "Asosiy massa o'zbeklar va tojiklardan (eronliklar) iborat; Ular aralash bo'lsa-da, o'zbeklar asosan sharqiy qismida, eronliklar esa g'arbiy qismida yashagan ko'rinadi". [4,B.92]

N.V.Xanikov XIX asrning 40-yillarida muhim natijalar bergan K.F. Butenov ekspeditsiyasida (1841-1842) ishtirok etgan geograf N.V. Xanikov Buxoro amirligi, Qizilqum va Zarafshon vodiysi to'g'risida boy material to'pladi. Bu materiallar N.V. Xanikovning "Buxoro xonligi tavsifi" ("Описание Бухарского ханства") nomli ensiklopedik mazmunli yirik asarida ilmiy jihatdan chuqur tahlil qilinib, umumlashtirildi. Asar 1843-yilda dastlab Sankt-Peterburgda nashr etilgan bo'lib, jami 229 sahifadan iborat. 1839—1840-yillarda Xiva ekspeditsiyasida, 1841—1842-yillarda muhandis K.F. Butenevning 8 oy davom etgan Buxoro elchiligida ishtirok etgan. "Buxoro xonligi tavsifi" asarining birinchi qismida geografik, topografik, ma'lumotlar va mamlakat aholisi haqida dalillar keltirilgan. N.Xanikov tojiklar "Buxoro shahrining asosiy aholisini tashkil qilishini" ta'kidlaydi. [5,B.112]

Meyendorff shuningdek, Buxoro qalmoqlarini shahar aholisining imtiyozli qatlami sifatida tasvirlaydi. Uning xabar berishicha, shaharda yashovchi qalmoqlar "shahar oldida yerga egalik qiladi, lekin ularning aksariyati harbiy xizmatchilar", ya'ni ular imtiyozli harbiy xizmat sinfiga mansub. Boshqa manbalarda Buxoro qalmoqlari qul sifatida tasvirlangan. [6,B.176]

Buxoro Markaziy Osiyodagi eng qadimgi va eng yirik shaharlardan biri bo'lib, ko'p asrlar davomida jamiyat tarixida muhim rol o'ynagan va zamonaviy O'zbekiston hududida paydo bo'lgan davlatlarning poytaxti bo'lib xizmat qilgan. Shahar avvalgi barcha rivojlanishlar natijasida, Buxoro xalqining asrlar davomidagi mehnati natijasida paydo bo'lgan, ular o'z hududini shahar hayotiga moslashtirgan. Inson hayoti uchun qulay bo'lmagan sharoitlarni o'zgartirib, buxoroliklarning ko'p avlodlari o'zlarining iqtisodiy faoliyati orqali uzoq ajdodlari tanlagan joyni yaxshiladilar va rivojlantirdilar.

Buxoro mahalliy tipi, tashqi ko'rinishi jihatidan Markaziy Osiyoning boshqa mintaqalari aholisidan biroz farq qiladi, Markaziy Osiyo xalqlari - Markaziy Osiyo oralig'idagi irqalar uchun umumiy bo'lgan qadimgi mahalliy qatlamning mahalliy varianti edi. [7,B.16]

Umumiy asosga qaramay, buxoroliklarning antropologik qiyofasi juda xilma-xil bo'lib, batafsil ma'noda turli etnik komponentlarning uzoq muddatli aralashuvini ko'rsatadi. Bu xususiyatlar, har doim ham ilmiy tahlilga mos kelmasa ham, darhol taassurot orqali aniq seziladi.

Buxoroliklar xushmuomalalik bilan ajralib turardi; ko'pincha yuz go'zalligi, nozik xususiyatlar, tananing ma'lum bir zaifligi va nafisligi hamda nosog'lom, oqargan yuz bilan birga.

Shuni ta'kidlash kerakki, ayollarga xos bo'lgan yanada yorqin tipik xususiyatlar mavjud edi: ular Buxoro aholisining etnogenezida ishtirok etgan turli irqalar yoki mahalliy turlarning xarakterli xususiyatlarini aniqroq namoyon qilishgan. Buxorolik erkaklarning turlari ham xilma-xil. Katta qora ko'zlari va qalin qora soqollari bo'lgan kelishgan, muntazam yuzlar bilan bir qatorda, ular ham bor edi. [8,B.17]

Markaziy Osiyo xalqlarining etnik tarixi va ijtimoiy-madaniy hayotini o'rganishda Buxoro shahri va uning vohasi alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Chunki Buxoro nafaqat islom olamining yirik diniy va siyosiy markazlaridan biri, balki turli etnik guruhlar, qabila va urug'larning tarixiy shakllanish jarayonida o'ziga xos chorraha sifatida faoliyat yuritgan. XIX–XX asrlarda Buxoro aholisi tarkibida o'zbek urug'lari asosiy etnik qatlamni tashkil etgan bo'lib, ular ko'p qirrali tarixiy-etnografik jarayonlarda faol qatnashgan. Buxorodagi turkiy tilli aholi etnik tarixini o'rganishda etnografiya maktabining yirik vakili Olga Aleksandrovna Suxareva (1896–1983) alohida o'rin tutadi. U 1940–1960-yillar davomida Buxoro shahri va uning guzarlarini, mahalliy aholi tarkibini, ijtimoiy-madaniy hayotini, ayniqsa o'zbek urug'larining tarixi va etnografiyasini keng miqyosda tadqiq etgan.

Uning ilmiy merosi bugungi kunda Buxoro o'zbeklarining urug'-qabila tizimi, etnik tarkibi, xo'jalik-madaniy hayoti va an'anaviy turmush tarzini chuqur anglashda asosiy manbalardan biri hisoblanad O. A. Suxareva Buxoro shahri aholisi etnik va lingvistik xususiyatini tahlil qilishda yevropalik va rus sayyohlari bergan ma'lumotlardan foydalanadi.

Olga Aleksandrovna Suxarevaning 1966 yilda Moskvada nashr etilgan “Бухара XIX — начала XX вв.: позднефеодальный город и его население” nomli monografiyasi Buxoro shahri tarixiy-topografik rivoji, aholisi, shuningdek uning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotini har tomonlama chuqur o'rganishga bag'ishlangan. Monografiya to'rt asosiy bo'limdan tashkil topgan bo'lib, har bir bo'limda muayyan mavzular ilmiy asosda tahlil qilingan.[9,B.328]

D. N Logofetning “Бухарское ханство под русским протекторатом” [1911] ilmiy kuzatuvlariga asoslangan asari Rossiya imperiyasi davrida Buxoro amirligi etnografiyasi va ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmasi haqida ma'lumot beruvchi muhim harbiy-statistik va kuzatuv xarakteridagi hujjatlar sirasiga kiradi. Kitobning 6-bobida Buxoro amirligidagi etnik birliklar— o'zbeklar, tojiklar, qirg'izlar, turkman, arab, g'alcha, xazarlar, afg'onlar, yahudiylar, hindlar, ruslar va lo'lilar haqida etnik, siyosiy va iqtisodiy tavsiflar keltirilgan.[10,B.356]

**Muhokama va natijalar.**XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr davomida Buxoro vohasi etnik tarkibi hamda etnografiyasini o'rganish Rossiya imperiyasi va keyinchalik sovet davri ilmiy siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'ldi. Rossiya imperiyasi davridagi dastlabki tadqiqotlar asosan harbiy-siyosiy va statistik xarakterga ega edi. Tadqiqotchilar Buxoro aholisining soni, joylashuvi, qabila va urug' tarkibini aniqlashga intilganlar. Bu jarayonda rus sharqshunoslari, harbiy topograflar va sayyohlarning xizmatlari muhim bo'ldi. Ularning asarlari o'zbeklar, tojiklar, turkmanlar, arablar, yahudiylar va boshqa etnik guruhlarining yashash hududlari hamda turmush tarziga oid tavsiflar uchraydi. Biroq mazkur tadqiqotlar ko'pincha mustamlakachilik manfaatlari asosida olib borilganligi sababli, ayrim ma'lumotlarda biryoqlamalik va siyosiy yondashuv seziladi.

Sovet hokimiyati o'rnatilgandan keyin Buxoro etnografiyasini o'rganish yangi bosqichga ko'tarildi. 1920–1930-yillarda milliy-hududiy chegaralanish siyosati tufayli etnik tarkib masalasi alohida ahamiyat kasb etdi. Sovet olimlari etnoslarni til, madaniyat va tarixiy kelib chiqish asosida tasniflashga harakat qildilar. Natijada Buxoro vohasida yashovchi aholining etnik tarkibi haqida keng qamrovli ilmiy ma'lumotlar shakllandi. Ayniqsa, o'zbek va tojik aholisining tarixiy shakllanishi, ularning o'zaro madaniy aloqalari hamda urbanizatsiya jarayonlari chuqur tadqiq qilindi. Etnografik izlanishlarda aholining an'anaviy turmush tarzi, oilaviy munosabatlari, kiyim-kechaklari, uy-joy qurilishi, xalq hunarmandchiligi va marosimlari muhim o'rin egalladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, Buxoro vohasi aholisi uzoq tarixiy davr davomida o'zaro madaniy integratsiya jarayonini boshdan kechirgan. Ayniqsa, shaharlarda o'zbek va tojik madaniy unsurlarining uyg'unlashuvi yaqqol namoyon bo'lgan. Qishloq hududlarida esa urug'-qabila an'analari uzoq vaqt saqlanib qolgan.

Aholining etnik tarkibi masalasini hal qilish uchun statistik materiallar birinchi darajali ahamiyatga ega bo'lishi kerak edi. Ammo ular Buxoroda faqat inqilobdan keyin paydo bo'ldi.

Rossiya Turkistonida 1897 yildan beri aholini ro'yxatga olish bir necha bor o'tkazilgan bo'lsa-da, inqilobdan oldin Buxoro va Xiva xonliklari hududida demografik ro'yxatga olishlar o'tkazilmagan edi; etnik tarkibni o'rganish faqat inqilobdan keyin milliy chegaralarni belgilash vazifalari bilan bog'liq holda tashkil etildi. Xonliklar bo'yicha birinchi ishonchli va juda keng qamrovli statistik ma'lumotlar 1923-1924 yillarda to'plangan, ammo shahar aholisi ularga kiritilmagan. Faqat 1926 yilda yildagi aholini ro'yxatga olish sobiq xonliklarning butun hududini, shu jumladan shaharlarni ham birinchi marta qamrab olgan. Buxoro ("Eski Buxoro") aholisini shaxsiy so'rovnoma orqali o'tkazilgan ushbu aholini ro'yxatga olishning nashr etilgan materiallari shuni ko'rsatadiki, 41 839 nafar mahalliy aholi istiqomat qiladi, ulardan 27 823 nafari o'zini o'zbek va 8646 nafari tojik deb atagan. [11,B.84]

Shunday qilib, Buxoro aholisining aksariyati tojik tilida so'zlashsa-da, ularning atigi to'rttdan bir qismi o'zini tojik deb atagan. 1926-yilgi aholini ro'yxatga olishning yuqori standarti juda aniq va keng qamrovli statistik ma'lumotlarni taqdim etgani umuman olganda tan olingan.

Biroq, ish olib borilgan sharoitlar turli mintaqalarda deyarli bir xil emas edi. Ular aholisi hali feodal despotizm va madaniy qoloqlikning qiyin merosini yengib o'tmagan xonliklarda eng qulay bo'lmagan. Bundan tashqari, 1926-yilgi aholini ro'yxatga olish Buxoro tarixida birinchi marta o'tkazildi. O'shanda ko'pchilik "tojik" va "o'zbek" atamalarini Tojikiston yoki O'zbekiston aholisi deb tushungan. [12,B.85]

Buxoro vohasi aholisining asosiy katta qismi o'zbek va tojiklardan iborat bo'lganligi uchun ko'p hollarda tadqiqotchilarni shu ikki xalqning turmush tarzini o'rganish, bir-biriga qiyoslash, tahlil qilish va ilmiy xulosalar chiqarishga undagan.

Ushbu fikrimiz F.D.Lyushkevichga ham taalluqli. Buxoro vohasi tojik aholisi etnik tarkibi taraqqiyotining ba'zi aspektlari, an'anaviy madaniyatining etnografik xususiyatlarini chuqur o'rgangan F.D.Lyushkevich 1977 yil 22 fevralda ko'p yillik shaxsiy dala kuzatuvlari asosida "Buxoro vohasi tojik aholisi etnik tarixi va etnografik xususiyatlarining o'ziga xosligi (XIX asr oxiri-XX asr boshi)" mavzuida nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qiladi. [13,B.466]

F.D.Lyushkevichning mutaxassisligi aslida sharqshunos, filolog. Biroq, o'z davrida uni o'rab olgan ilmiy muhit, ya'ni atrofidagi ustozu-safdoshlari ta'siri, ularning beg'araz yordami tufayli etnograf olimi darajasiga yetgan edi.

Buxoro hududida taomlari xususida quydagi fikrlarni yozib qoldirgan: Voha markazi va unga yaqin bo'lgan tumanlarda o'tkazilgan to'y va marosimlarda doimo "sofi palov" (toj.oshi sof) pishirilgan. Xususan, sunnat to'yi va qiz to'ylari "oshi sofisiz" o'tkazilmagan. Oshi sof taomning tojikcha atamasi bo'lib, o'zbek tilida Vohada kelin-kuyov to'yini qiz to'yi deb ham nomlaganlar. (toj. To'yi duxtar) qo'llanilgan. Taom faqat to'y marosimlaridagina emas, keksa qariyalar payg'ambar yoshiga (63 yosh) yetganda "payg'ambar oshi" yoki juda keksayib, murodiga yetib vafot etganda, dafn etilgan kuni "qora osh" (toj."oshi siyoh"), motamning uchinchi kuni esa "oshi begohi juma" deb pishirilgan va iste'mol qilingan. Buxoro eroniyalarida ham motamning uchinchi kuni Xatmi qur'on o'tkazilib, oshi sof pishirilgani qayd etiladi (1970-80-yillarda O'rta Osiyo, Kavkaz va Qozoqiston xalqlari etnografiyasi bo'limi rahbari V.P.Kurilev, F.D.Lyushkevich faoliyatini quyidagicha baholaydi: "Fanya Davidovna qiziqishlari doirasini milliy munosabatlar masalasida eng murakkab soha O'rta Osiyo rayonlaridan biri O'zbekiston-Buxoro vohasi asosan tojik tilli o'troq dehqon va turk tilli ko'chmanchi-chorvador

aholining ko'p asrlik o'zaro aloqalarini o'zida mujassam etgan etnik tarixi, an'anaviy va zamonaviy madaniyati va turmushini o'rganish qamrab olgan edi. [14,B.86]

N.V. Xanikov "Buxoro xonligi tavsifi" asarining birinchi qismida geografik, topografik, ma'lumotlar va mamlakat aholisi haqida dalillar keltirilgan. O'zbeklarning 97 ta urug'ining ro'yxati ilova qilinib (ulardan 28 tasi Buxoroda), yashash joylari ham ko'rsatilgan. [15, B. 64]

Tojiklar. Buxoro xonligining bu asl aholisidan juda oz qismi qolgan. Ular Buxoro shahrining asosiy aholisini tashkil qiladi, boshqa shaharlarda esa umuman yo'q yoki juda kam.

"O'zbeklar. Bu qabila, shubhasiz, Buxoro xonligida eng muhimi, soni jihatidan emas, balki birligi jihatidan. Ular bizning qirg'izlarimiz singari urug'lar va bo'linmalarga bo'lingan va o'z qabilasida ma'lum bir hurmatga ega bo'lgan oqsoqollar va biylarga ega. Ularning ko'chmanchi turmush tarzi va turmush tarzini tasvirlashni boshlashdan oldin, biz "Nassiyad Namyati-O'zbekikya" kitobidan olingan 28 tasi quyidagilar:

1.mang'itlar 2.Xitoy, 3.Nayman, 4.Qipchoq, 5.Saroy, 6.Qo'ng'iroq 7.Turkman 8.Araliyat 9.Buzachi, 10.Durman,11.Yabu 12.Dijid 13.Djiyut, 14.Biyatash, 15.Byagrpv, 16.Qirq, 17.Ung. 18)Ungachit 19)Qalmaq. 20)Qatag'an 21)Galyachi. 22)Uzoy, 23)Childjuyut 24)Kireit, 25)Gurlyat. 26) Yuxup. 27) Uyg'ur. 28) Tatar. [16,B.65]

Bu ro'yxat Xanikovning Buxoro aholisi etnik tarkibi murakkab va xilma-xilligi, o'zbeklar orasidagi urug'-qabila tizimi qanday rivojlanganligini ko'rsatadi. Keltirilgan 97ta qabila va urug' nomi asosan turkiy etnoslarga mansub bo'lib, ularning ba'zilari mo'g'ul, arab yoki mahalliy sug'diy asosga ega.

Tatyana Grigoryevna Emelyanenko Buxoro yahudiylari tarix va madaniyatini o'rganadi.

Moddiy dunyo Buxoro yahudiylarining an'anaviy madaniyatining deyarli o'rganilmagan sohasini tashkil etadi. 19-asr va 20-asr boshlaridagi sayohatchilar va tadqiqotchilar ularning Markaziy Osiyodagi kelib chiqishi va huquqiy maqomi, iqtisodiy faoliyati hamda diniy xususiyatlari masalalariga ko'proq qiziqqan.

Kiyim-kechak va maishiy buyumlarga kelsak, ular odatda Buxoro yahudilari yashagan xalqlar – tojiklar va o'troq o'zbeklar – orasida ishlab chiqarilgan va ishlatilgan buyumlardan farq qilmasligini qayd etishgan. Yagona tilga olinishlar odatda "alohida erkaklar kiyimida mahalliy qonunlar bilan belgilangan "alohida ajratib turuvchi belgilar" – maxsus shakldagi shlyapa, qora paxta xalatlar va arqoncha kamar, mualliflar ularni musulmon jamiyatida kamsitilgan va huquqsiz mavqelarining misoli sifatida keltirgan T.Emelyanenko. [17,B.66]

B. X. Karmisheva tomonidan ko'p yillik dala ishlari davomida to'plangan etnografik ma'lumotlarga asoslangan. Faqatgina unda taqdim etilgan, mahalliy tillarni mukammal biladigan tajribali dala etnografina to'plashi mumkin bo'lgan faktik materiallar shubhasiz ilmiy ahamiyatga ega. Tojikiston va O'zbekistonning janubiy mintaqalarining xususiyatlari-alohida guruhlarining mozaik joylashuvi bilan aralash aholi, cho'l va vohalar tomonidan yaratilgan noyob tabiiy sharoitlar - muallifga ko'p asrlar davomida bir-biriga ta'sir ko'rsatgan turli etnik guruhlarining birga yashashining murakkab manzarasini yoritishga imkon berdi. Bu hududlarda aholi ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi qabilalarning doimiy oqimi ta'sirida shakllangan bo'lib, ular muqarrar ravishda mintaqaning o'troq aholisi, ham tojik tilini saqlab qolganlar, ham o'zbek tilining turli lahjalarini qabul qilganlar bilan turli aloqalarga kirishgan. Shunday qilib, muallifning kuzatuvlari ikkita yirik etnik muhit - eronzabon va turkiyabonlar o'rtasidagi munosabatlar tarixiga qaratilgan. [18,B.35]

Markaziy Osiyo shahrini etnografik ma'lumotlarga asoslangan monografik o'rganishning samarali g'oyasi M.S.Andreev tomonidan ilgari surilgan. [19]

U inqilobgacha qadimgi va o'rta asrlarning ko'plab xususiyatlarini o'zining tashqi ko'rinishi va shahar hayoti shakllarida sezilarli darajada saqlab qolgan Buxoroni tanladi. Bu M.S.Andreev o'zi va boshqa etnograflar oldiga qo'ygan ilmiy vazifaga - "o'tmishning xususiyatlari"ni o'rganish vazifasiga mos keldi. M. S. Andreev boshlagan ishini oxiriga yetkaza olmadi. Buxoroni tadqiqot ob'ekti sifatida tanlash juda muvaffaqiyatli bo'ldi. Mahalliy yozma manbalar va adabiyotlar bilan eng yaxshi yoritilgan bu qadimiy shahar eski shakllanishdagi eng tipik Markaziy Osiyo shahri edi va nafaqat Markaziy Osiyo, balki umuman Sharqiy feodal shahrining xususiyatlari uchun ham amaliy tadqiqot sifatida ishlatilishi mumkin edi.

### **XULOSA**

Rossiya imperiyasi va sovet davrida Buxoro vohasining etnik tarkibi hamda etnografiyasini o'rganish Markaziy Osiyo xalqlari tarixini tadqiq etishda muhim ilmiy yo'nalishlardan biri bo'ldi. Mazkur davrlarda olib borilgan tadqiqotlar natijasida Buxoro hududida yashagan o'zbek, tojik, turkman, arab, yahudiy va boshqa etnik guruhlarining joylashuvi, turmush tarzi, madaniyati hamda ijtimoiy hayoti haqida boy ilmiy ma'lumotlar to'plandi. Ayniqsa, sovet davridagi etnografik ekspeditsiyalar xalqning moddiy va ma'naviy merosini hujjatlashtirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Buxoro vohasi qadimdan turli xalqlar va madaniyatlar chorrahasi bo'lib kelgan. Hudud aholisi uzoq tarixiy taraqqiyot davomida o'zaro iqtisodiy, madaniy va til aloqalari orqali integratsiyalashgan. Natijada vohada o'ziga xos ko'p millatli va ko'p madaniyatli muhit shakllangan. Bu esa Buxoro etnografiyasining rang-barangligi va boyligini ta'minlagan.

Shu bilan birga, Rossiya imperiyasi davridagi tadqiqotlarning aksariyati mustamlakachilik siyosati manfaatlariga xizmat qilgan bo'lsa, sovet davri izlanishlarida mafkuraviy yondashuv kuchli bo'lganligi kuzatiladi. Ayrim hollarda mahalliy an'ana va diniy qadriyatlar biryozlama talqin etilgan. Shunga qaramay, ushbu davrda yaratilgan ilmiy manbalar bugungi etnologiya va tarix fanlari uchun muhim asos bo'lib qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Rossiya imperiyasi va sovet davrida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar Buxoro vohasining etnik tarixini, aholi tarkibi va etnomadaniy jarayonlarini o'rganishda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Hozirgi kunda ushbu merosni zamonaviy ilmiy metodologiyalar asosida qayta tahlil qilish, mahalliy manbalar bilan boyitish va xolis baholash Buxoro etnografiyasini yanada chuqurroq o'rganish imkonini beradi. Bu odamlarning xotiralari Sovet Sharqi xalqlari, xususan, O'zbekistonning o'tmishi haqidagi bilimlarimizni sezilarli darajada kengaytirishga qodir bo'lgan qimmatli, boy tarixiy manbadir.

O'tmishda turli xil ijtimoiy lavozimlarni egallagan odamlar - hunarmandlar, kunduzgi mardikorlar, savdogarlar, amir ma'muriy apparati amaldorlari, mullalar va mahalliy ziyolilarning katta avlod vakillari bilan maslahatlashish imkoniyati tarixiy va etnografik tadqiqotlar uchun bir qator manbalarni yaratadi, bu bizga shaharning o'tmishdagi hayotining barcha jihatlarini ularning o'zaro bog'liqligida yoritishga imkon beradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. X. Karmisheva. Tojikiston va O'zbekistonning janubiy mintaqalarining etnik tarixi bo'yicha esselar (Etnografik ma'lumotlar asosida). Moskva, 1976,35 -bet.
2. Jabborov. I. O'zbek xalq etnografiyasi.-T.,O'qituvchi 1994. -B. 12.
3. Записки о Бухарском ханстве (Отчеты П.И. Демезона и И.В. Виткевича). – М.,1983
4. И. Т. Пославский, Бухара. Описание города и ханства.-С.92

5. Хаников.Н.В.Описание Бухарского ханства. – СПб.: Типография Императорской Академии наук, 1843. –б 64-65
6. Ваг. Meyendorff, Voyage d'Orenbourg a Boukhara fait en1820, Paris, 1826.176.
7. Л. В. Ошанин, В. Я. Зезенкова, Вопросы этногенеза народовСредней Азии в свете данных антропологии, Ташкент, 1953, стр. 16
8. Л. В. Ошанин, В. Я. Зезенкова, Вопросы этногенеза народов Средней Азии в свете данных антропологии, Ташкент, 1953, стр. 17
9. Сухарева О. А. Бухара XIX – начала XX в. (позднефеодальный город и его население). – Москва: Наука, 1966. – 328 с.
10. Логофет Д. Н. Бухарское ханство под русским протекторатом. – Санкт-Петербург : Тип. М. М. Стасюлевича, 1911. – 356 с.
11. Итоги этих исследований опубликованы в широко популярном среди научных работников издании «Материалы по районированию Средней Азии», первый выпуск которых посвящен Бухаре. стр 84
12. Итоги этих исследований опубликованы в широко популярном среди научных работников издании «Материалы по районированию Средней Азии», первый выпуск которых посвящен Бухаре. стр 85
13. Янес М.А. Фаня Давыдовна Люшкевич. /Журнальный клуб интелрос. Антропологический форум. №8.2008.-С.466-478
14. Курбонова М.Б. XIX аср охири – XX аср боши Бухоро аҳолиси этнографиясини ўрганишга доир.//Из истории культурного наследия Бухары (10 выпуск). Изд. «Бухоро». Бухара. 2006. - С.84-88.
15. Хаников.Н.В.Описание Бухарского ханства. – СПб.: Типография Императорской Академии наук, 1843. –б 64.
16. Хаников.Н.В.Описание Бухарского ханства. – СПб.: Типография Императорской Академии наук, 1843. –б .65.
17. Емельяненко Т. Г. Памятники традиционно-бытовой культуры бухарских евреев в лтузейных собраниях: особенности комплектования // ЭО. № 3. 2010. С. 66-76.
18. X. Karmisheva. Tojikiston va O'zbekistonning janubiy mintaqalarining etnik tarixi bo'yicha esselar (Etnografik ma'lumotlar asosida). Moskva, 1976,35 -bet.
19. М. С. Андреев, По этнологии Афганистана. Долина реки Панджшир, Ташкент, 1927.